




JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Jizzax viloyati
kichik tadbirkorlik
2022- yil yanvar-mart**


Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi, % da



2020- yil



2021- yil



2022- yil

2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi **72,5** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **1447,0** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-martida **21836** ta yangi kichik korxon va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **110,8** foizga ko'p demakdir.

2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxon va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Qurilish




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxon va mikrofirmalar savdoda **432** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **368** ta, sanoatda **255** ta, qurilishda **67** ta, yashash va ovqatlanishda **63** ta, axborot va aloqada **24** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari




2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2022- yilning yanvar-martida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

29,0%



Sanoat

18,6%



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

20,0%



Qurilish

10,4%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

7,2%



Tashish va saqlash

3,1%



Axborot va aloqa

1,2%




Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,2%




Boshqa faoliyat turlari

9,3%



1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2021- y. ■ 2022- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



Hududlar bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2021 y. yanvar-mart

■ 2022 y. yanvar-mart

2022- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2022- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan engko'p ulushi Jizzax shahri – 22,9 %, Sharof Rashidov – 13,5 %, G'allaorol – 10,7 %, Zomin – 8,4%, Baxmal – 7,4%, Forish – 7,2 % tumanlar hissalariga to'g'ri keldi.






Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2022- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda
432 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida
368 ta

Sanoatda
255 ta

Qurilishda
67 ta


Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida




2022- yil 1-aprel holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 14,0 birlikni tashkil etdi.



Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra*




2022- yil 1-aprel holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



2022- yil 1-aprel holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida 6,0 birlik, Sharof Rashidov tumanida 3,1 birlik, G'allaorol tumanida 1,8 birlik, Zomin tumanida 1,6 birlik, va Forish tumanida 1,5 birlik, Baxmal tumanida 1,2 birlik tashkil etgan.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 23,5 mln. AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 44,2 % ini tashkil etdi.




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

2022 yilning yanvar-mart kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2022 – yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Baxmal, Mirzacho'l va Yangiobod tumanlarida – 100,0 %, Paxtakor tumanida 99,1 %, Sh.Rashidov tumanida – 69,2 % ni, eng past ko'rsatkich Do'stlik tumanida – 0,4 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **84,7** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **83,6** % ini tashkil etdi.



2022 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Baxmal, G'allaorol, Sharof Rashidov va Yangiobod tumanlarida – 100,0 %, Forish tumanida – 99,8 %, va Mirzacho'l tumanlarida – 99,7 %, eng past ko'rsatkich Arnasoy tumanida – 8,5 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2022- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi mlrd. so'm

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1249,8** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi G'allaorol (605,6 mlrd. so'm), Jizzax shaxar (245,8 mlrd. so'm), Paxtakor (70,3 mlrd. so'm), Zafarobod (60,1 mlrd. So'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Zarbdor tumanida (13,6mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2022- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **54,5 %** ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-mart holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Baxmal, Mirzacho'l va Yangiobod (100,0%), G'allaorol tumani (98,7%), Forish tumani (81,4%), Zomin tumani (52,6%), Paxtakor tumani (53,8%), ni tashkil etdi. Do'stlik tumani (8,5%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **1866,5** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **76,9** % ini tashkil etib. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **103,3%** ga o'sishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri (570,6 mln. so'm), Sharof Rashidov tumani (335,1 mln.so'm), Zomin tumani (270,4 mln.so'm), G'allaorol tumani (154,1 mln. so'm), Baxmal tumani (142,4mln.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



■ hajm, mlrd. so'm

● o'sish sur'ati, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi



2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2884,0** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **93,9 %** ni tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **104,6 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (1113,3 mlrd. soʻm), Sharof Rashidov (458,8 mlrd. soʻm), Zomin (237,8 mlrd. soʻm), Paxtakor (222,1 mlrd. soʻm), Gʻallaorol (175,1 mlrd. soʻm), Zarbdor (124,9 mlrd. soʻm) hamda Zafarobod (110,9 mlrd. soʻm) tumanlarida qayd etildi.

2021- yilning yanvar- martida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʻati



■ hajm, mlrd. soʻm ● oʻsish surʻati, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **995,9** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **57,0** % ini tashkil qildi va oʻsish surʼati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **109,5** % ni tashkil qilgan.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Jizzax shahri (249,5 mln. soʻm), Sharof Rashidov (158,3 mln. soʻm), Gʻallaorol (112,6 mln. soʻm), Zomin (110,4 mln. soʻm), Baxmal (78,4 mln. soʻm), Forish (57,0 mln. soʻm) va Zarbdor (48,5 mln. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.

2022- yilning yanvar- martida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʼati




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 85,5 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,4 % ni tashkil qildi.

2022-yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 89,7 % ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,7 % ni tashkil qildi.

2022-yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,1 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,9 % ni tashkil qildi.

2022-yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,5 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,1 % ni tashkil qildi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 807 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 257 (31,7 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 507 (62,5%) ta sub'yektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 47 (5,8%) ta sub'yektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 6,6 % (53 ta), sanoatda – 7,3 % (59 ta), qurilishda – 2,6 % (21 ta), savdoda – 35,3% (285ta), xizmatlar sohasida – 48,3 % (390 ta)ni tashkil etdi.

2022- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2022- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (238 ta), Sharof Rashidov (112 ta), Forish (73 ta), Zomin (65 ta) G'allaorol (62 ta), tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022-yilning I choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 41,4%ni, xizmatlar sohasida 20,3%ni qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 19,5%ni sanoatda 11,7% ni, qurilishda 7,0 % ni tashkil etdi. Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda 34,2 %ni, xizmatlar sohasida 28,3%ni, sanoatda 14,6% ni tashkil etdi.

2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo sohasida 38,5%ni, xizmatlarda 26,4 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 12,5%ni tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdo sohasida 34,5%ni, xizmatlar 24,1%ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 17,4 %ni tashkil etdi.

